

# **Uzbekistan Airways parvoz o'quv muassasalari bitiruvchilarini ishga qabul qilishini ma'lum qiladi**

**2023 6 iyul**

Uzbekistan Airways o'z aviaparkini zamonaviy va qulay havo kemalari bilan to'ldirmoqda, shuningdek, yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha ishlarni ham davom ettirmoqda. Shu munosabat bilan, Uzbekistan Airways parvoz o'quv muassasalari bitiruvchilari uchun aviakompaniyaga ishga qabul qilinishini e'lon qiladi.

## **Nomzodlarga qo'yiladigan talablar:**

- O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi;
- 21 yoshdan 35 yoshgacha.

**Eslatma:** Hujjatlarni topshirish kunida 21 yoshga to'Imagan yoki 36 yoshga to'lgan shaxslar tanlov saralashida ishtirok etishlariga yo'l qo'yilmaydi;

- fuqaro aviatsiyasi uchuvchisining tugallangan aviatsiya ta'limi;

**Eslatma:** O'zbekiston Respublikasidan tashqarida olingan ma'lumot mavjud bo'lgan taqdirda, hujjatlarni topshirish vaqtida xorijiy ta'lim muassasasini tamomlaganligi to'g'risidagi diplom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan belgilangan hujjatlari talablariga muvofiq nostrifikatsiyalangan bo'lishi kerak;

- ariza berish vaqtida FA parvoz o'quv yurti tugaganidan beri 3 (uch) yildan ortiq bo'Imagan vaqt davri;
- FA parvoz o'quv yurtida 120 uchish soatidan kam bo'Imagan;
- ta'lim dasturini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan hajmda davlat tili, rus va ingлиз tillarini bilish;

- ICAO 4 shkalasi va undan yuqori bo'lgan ingliz tili darjasи;
- erkak nomzodlar uchun harbiy xizmatga yaroqlilik belgisi bilan O'zbekiston Respublikasi harbiy guvohnomasining mavjudligи;
- IR'ni tasdiqlovchi hujjat;
- amaldagi tibbiy guvohnoma (amal qilish muddati kamida 6 oy)

**Muhim!** Tanlov rus tilida olib boriladi!

Hujjatlarni qabul qilish **2023-yil 4-avgustgacha** amalga oshiriladi.

Rejalashtirilgan tanlov sanasi Toshkent shahrida **2023-yilning 8-avgust kunidan** boshlab bo'lib o'tadi.

**Hujjatlar quyidagi manzilda qabul qilinadi: Uchuvchilar majmuasi binosi, Parvoz xizmati departamenti Flight training manager, Tursunova Nargiza Shuxratovna, 313-xona.**